



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

QODIROV JASURBEK SHAROFITDINOVICH

**Davlat-xususiy sherikchiligi (DXSh): o'zaro moliyalashtirish asosida
investitsiyaviy salohiyatni oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari**

Davlat-xususiy sherikligi (keyingi o'rinlarda – DXSh deb ataladi) tushunchasi va amalga oshirilishi turli rivojlanish davrlaridan o'tib, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga mos ravishda turli sohalarda turli dastaklar yordamida amalga oshirilgan.

O'tgan asrning 50 - va 60 - yillarda Yevropa hamda AQSHda inqirozdan keyingi davrda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan loyihalarda davlat aralashuvining yuqori darajasi bo'lgan davr hisoblanadi. Ushbu davrda DXSh xarakterli bo'lgan sohalarda loyihalar soni kam bo'lgan, amalga oshirilganlarining aksariyat qismi davlat tomonidan moliyalashtirilgan.

70 - va 80 - yillarda esa, turg'unlik va jiddiy budjet cheklovlari boshlanganidan keyin vaziyat keskin o'zgargan. Davlat aralashuvi va aholiga muntazam xizmat ko'rsatish imkoniyatlari sezilarli darajada kamaydi.

Bunday hamkorlik nima sababdan global miqyosda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarda kuchga kirayotgani hamda Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining 1980 yildan buyon amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarish dasturlarining aniqlangan kamchiliklaridan kelib chiqadi. Sotsialistik blokning rejali iqtisodini rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy muammolari bilan bir qatorda, iqtisodiy tizimlarning samaradorligini, yuqori mahsuldorligini oshirish va chuqur inqirozlarni oldini olish uchun tubdan isloh qilinishi zarurligini aytadi.

DXSh iqtisodiyotni rivojlantirishning neoliberal g'oyalarini ilgari surishi kerakligiga: iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirish, raqobatbardosh bozorlarni rivojlantirishga ko'maklashish va boshqalar iqtisodiy rivojlanish omillari ekanligiga asoslanadi.

DXSh nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, balki sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun ham dolzarbdir, chunki, qoida tariqasida, DXSh davlat biznes loyihalariga emas, balki aksincha, davlat biznesmenlarni ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etishga taklif qiladi. Yevropada DXSh birinchi marta 1992 yilda buyuk Britaniyada qo'llanilgan, Portugaliya davlat-xususiy sherikligida amalga oshirilgan loyihalar 1999-2003 barcha davlat investisiyalarning 20 foizini tashkil etdi.

DXSh – davlat va biznesning o'zaro manfaatli shartlar asosida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal etish uchun o'rta va uzoq muddatli o'zaro xatti-harakatlarning bir qator shakllari bo'lib hisoblanadi.

DXSh asosida korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, bugungi kunda jahon amaliyotida DXShning aniq bir ta'rifi bo'yicha yagona to'xtamga kelinmagan.

Keng ma'noda aytganda, DXSh odatda davlat va xususiy sektorning o'rta va uzoq muddatli kelishuvi bo'lib, unga ko'ra, ijtimoiy sektorga tegishli, davlat sektorining zimmasida bo'lgan ayrim xizmatlar aynan aniq infratuzilmasi yoki xizmatlari bilan xususiy sektor tomonidan ta'minlanadi. DXShga qoida bo'yicha davlat buyurtmalari bo'lgan servis shartnomalari yoki qurilish-pudrat shartnomalari hamda ijtimoiy sektorning roli cheklangan xususiylashtirish jarayonlari kiritilmaydi¹. Shuningdek, "DXSh atamasi hamjamiyat doirasida ham aniqlanmagan. Umumiy qilib aytganda, mazkur atama davlat hokimiyati bilan biznes o'rtasidagi moliyalashtirishni ta'minlash, qurilish, modernizatsiyalash, boshqarish yoki infratuzilmani saqlab turish yoki xizmatlarni taqdim qilish bo'yicha o'zaro kooperatsiyaga tegishli" deb qaraladi².

¹ <http://worldbank.org/public-privatepartnership/overview/whatarepublic-private-partnerships>.

² Green Paper on Public-Private Partnerships and Community Law on Public Contracts and Concessions. Brussels. 30.04.2004. P.3.

Bundan tashqari, Yelning mintaqaviy siyosat bo'yicha komissiyasi "DXShni an'anaviy tarzda davlat sektori tomonidan amalga oshirilib kelingan va moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining xususiy sektorga berilishidir" deb ta'riflaydi³.

BMT tomonidan esa, "DXSh – davlat sektori tomonidan ishlab chiqariladigan va taqdim qilinadigan xizmatlarni moliyalashtirishni, rejalashtirishni, amalga oshirish va obyektlarni ishlatishni maqsad qilib qo'yadi va uning asosiy xususiyatlari xizmatlarni xususiy sektorga uzoq muddatli taqdim qilinishini ta'minlash (ba'zan 30 yilgacha), risklarni xususiy investorga o'tkazish, davlat va mahalliy tuzilmalar bilan huquqiy shaxslarning ko'p qirrali uzoq muddatli shartnoma shakllarini amalga oshirilishi bilan farqlanadi" deb ta'rif beriladi⁴.

Jahon banki instituti ta'rifiga ko'ra, "DXSh – xususiy tomon va davlat organi o'rtasidagi davlat aktivlarini yaratish yoki xizmatlarini taqdim qilish uchun uzoq muddatli shartnoma bo'lib, unda xususiy tomon sezilarlicha katta risklar va boshqaruv uchun javobgarlikni oladi"⁵. Osiyo taraqqiyot banki tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "DXSh – atamasi infratuzilma yoki boshqa xizmatlari kesimida ijtimoiy va xususiy tashkilotlar o'rtasidagi mumkin bo'lgan barcha munosabatlar diapazonini ifodalaydi"⁶.

Bundan tashqari, AQSH Federal transport bo'limining DXSh bo'yicha Kongressga bergan hisobotida "DXSh – an'anaviy ishtirokiga nisbatan xususiy sherikka davlat bilan munosabatlarda ko'proq ishtirok qilishiga imkon beruvchi shartnomaviy kelishuv bo'lib, mazkur kelishuv odatda hokimiyat organi bilan xususiy kompaniya o'rtasida modernizatsiyalash, qurilish, ishlatish, muayyan obyekttni, tizimni saqlash yoki boshqarishni nazarda tutadi" deb keltiriladi⁷.

Hindiston hukumati tomonidan esa, "DXSh – bu hukumat yoki ijtimoiy sektor tomonidan xususiy kompaniyalar bilan foydalanuvchilardan to'lovlar undirish

³ http://ec.europa.eu/regional_policy/sources/docgener/guides/en.pdf. Murojaat etilgan sana: 04.04.2019 й.

⁴ Практическое руководство по вопросам эффективного управления в сфере ГЧП/ Организация Объединенных Наций. - Нью-Йорк и Женева, 2008. ISBN: 978-92-1-4160403.

⁵ World Bank Institute / PPIAF, Public-Private Partnerships Reference Guide, Washington DC, 2012.

⁶ Public-Private Partnerships Handbook. Asian Development Bank. 2006.

⁷ Report to Congress on Public Private Partnerships. U.S. Department of Transportation, Federal Highway Administration, December 2004. p. 10.

evaziga infratuzilma xizmatlari bilan ta'minlashga qaratilgan shartnomaviy yoki konsession kelishuv loyihasidir" deb ta'riflanadi⁸.

Britaniya Kolumbiyasi va Kanada hamkorligi doirasida "DXSh – davlat va biznes tomonlari o'rtasidagi aktivlarni yaratish va xizmatlarni taqdim qilish uchun qonunga ko'ra majburiy shartnoma bo'lib, u tomonlar o'rtasida risk va majburiyalarni taqsimlashni o'rnatadi" deb talqin qilinadi⁹.

Avstraliya hukumati esa "DXSh – davlat va xususiy sektorning davlat topshirig'iga ko'ra infratuzilma va boshqa xizmatlarni taqdim etish bo'yicha xususiy sektorga puli to'lab beriladigan topshirig'i bo'lib, odatda u butun xususiy sikl davomida infratuzilmani qurgan xususiy sektorga faoliyat ko'rsatishi, saqlanishi kabi vazifalarni yuklaydi"¹⁰.

Irlandiya hukumati esa "DXSh – davlat tomonidan an'anaviy tarzda amalga oshiriladigan xizmatlar taqdim etish va boshqa loyihalarni amalga oshirish bo'yicha davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklikdir" deb ta'riflaydi¹¹.

Gongkongda "DXSh – o'zaro har bir tomon korxonaga tegishli hissa qo'shish orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishga xususiy tomonni jalb qilishga qaratilgan shartnomaviy bitimdir" deb talqin etiladi¹².

Yangi Zelandiyada "„obyekt yoki aktivni yaratish yoki mavjudlarini rekonstruksiya qilishni va xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli shartnomalardir"¹³ deb DXSh ta'rifi qabul qilingan.

Fransiyada esa "Sherikchilik shartnomasi – ma'muriy shartnoma bo'lib, unga ko'ra davlat yoki davlat tashkiloti uchinchi tomonga faqat ulush qo'shish bilan qatnashishdan mustasno bo'lgan, investitsiyalar amortizatsiya me'yorlarida belgilangan, kelishilgan moliyaviy shartlarda davlat xizmatlarini taqdim qilish uchun zarur bo'lgan qurilish, qayta qurish, saqlash, foydalanish, moddiy va

⁸ Guidelines for Financial Support to Public Private Partnerships in Infrastructure, Government of India, 2006.

⁹ An Introduction to Public Private Partnerships, Partnerships British Columbia, Canada, 2003. <http://www.partnershipsbc.ca/pdf/An%20>.

¹⁰ National Public Private Partnership Guidelines Overview, Australian Government, Dec. 2008. http://infrastructureaustralia.go.au/public_private/files/.

¹¹ Introduction to Public Private Partnerships - Public Private Partnership Guidance Note 1, 14 April 2000, Department of the Environment and Local Government, Ireland

¹² Efficiency Unit, An Introductory Guide to Public Private Partnerships (Hong Kong, 2nd edition 2008).

¹³ Treasury National Infrastructure Unit, Guidance for Public Private Partnerships (DXIIs) in New Zealand (Wellington, 2009).

nomoddiy aktivlarni boshqarish bilan bog‘liq, to‘liq yoki qisman moliyalashtirishga asoslangan majburiyatlarni yuklaydigan shartnomadir” deb qabul qilingan.

DXSh masalalarini o‘rganish ustida ish olib borayotgan tadqiqotchilarning aksariyati davlat-xususiy sektor hamkorligi konsepsiyasini, shu jumladan, uning amaliy komponentini ishlab chiqish bo‘yicha turli nazariyalarni ilgari surishmoqda. Zamonaviy g‘arb iqtisodchilari esa, MDH davlatlariga qaraganda bu sohada ancha oldinroq ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borishgan. Rivojlangan davlatlar amaliyotida DXShning ancha oldinroq kirib kelganligi bois, bu borada yuzaga kelgan muammolarning mavjudligi DXShning asosiy xususiyatlari va tamoyillarini batafsil o‘rganishga va bayon etishga imkon yaratadi.

R.Normyentning fikriga ko‘ra, AQSh davlat-xususiy sektor hamkorligi bo‘yicha milliy kengashning ijrochi direktori DXSh har qanday darajadagi davlat tuzilmasi va xususiy sektorni tashkil etish o‘rtasidagi shartnoma hisoblanadi. Ushbu kelishuv orqali har bir sektorning resurslari, aktivlari va xizmatlarini yoki jamoat foydalanish obyektlarini yaratish maqsadida bir-birini to‘ldiradi. Resurslarni almashish bilan bir qatorda, har bir tomon yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy) xavf va foydalarni baham ko‘radi¹⁴.

Nufuzli reyting agentligining nashrlarida “Standard & Poor’s” reyting agentligi tomonidan, DXSh – xavf va daromadlarni taqsimlash, shuningdek resurslar va vakolatlarni birlashtirishga asoslangan xususiy va davlat sektori o‘rtasida har qanday o‘rta yoki uzoq muddatli bitim sifatida tavsiflanadi.

Amerikalik olim P.Rosenau (P.Rosenau) tadqiqotlariga ko‘ra, DXSh – xususiy va davlat sektorlari muvaffaqiyatsizliklar oldini olish, sinergetik ijobiy ta’sir olish hamda har ikki tomonning eng yaxshi fazilatlarini birlashtirish mumkin bo‘lgan hamkorlikning huquqiy shakli sifatida asoslagan¹⁵.

Davlat boshqaruvi sohasida gollandiyalik olimlar Erik Hans Klijn va Joop Koppenjan DXShni xususiy va davlat sektori ishtirokchilari o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik sifatida belgilaydi, ular mahsulot

¹⁴ Norment, R. Fundamentals of Public-Private Partner–ships (DXIIIIs) / R. Norment // The National Council for Public – Private Partnerships, – 2007.

¹⁵ Rosenau, P. Public–Private policy partnerships / P. Rosenau // Cambridge, MA: MIT press, 2000.

va xizmatlarni birgalikda ishlab chiqishga imkon beradi, shuningdek, ushbu mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etish bilan bog‘liq xatarlar, xarajatlar va resurslarni taqsimlaydi.

Xorijiy tadqiqotchilar S.Linder (S. Linder) va E.Savas (E. S. Savas) davlat-xususiy sektor hamkorligining maqsadini aniqlash bo‘yicha boshqa nuqtai nazarga rioya qilishadi. Shunday qilib, ularning fikriga ko‘ra, DXSh atamasi xususiylashtirish va xususiy korxonalarni davlat korxonalari hisobidan davlat mollarini berish jarayoniga jalb qilish istagi bo‘lgan haqiqiy maqsadlarni yashirish uchun tan olingan tildir. Bundan tashqari, hamkorlikni siyosiy ramz sifatida va siyosiy vosita sifatida tavsiflash mumkin: bu boshqaruv islohoti, ya’ni davlat funksiyalarini amalga oshirish usulini o‘zgartiradigan innovatsion vosita¹⁶.

Ko‘rib turganimizdek, DXShning turli xil ta’riflari mavjud, ammo bizning fikrimizcha, Jahon banki tomonidan eng keng tarqalgan: “DXSh – qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish maqsadida tuzilgan infratuzilma xizmatlarini ishlab chiqish va yetkazib berish bo‘yicha davlat va xususiy partiyalar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar va bundan ham muhimi, budjetni moliyalashtirish samaradorligini oshirish vositasi sifatida”¹⁷.

Rossiya tadqiqotchilari orasida “davlat-xususiy sektor hamkorligi” tushunchasi mavjud. Bizning fikrimizcha, bu konsepsiyaning mazmuni A.Beliskaya tomonidan batafsil tarzda ochib berilgan. Uning fikriga ko‘ra, davlat-xususiy sektor hamkorligi – davlat hokimiyati organlari, tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik subyektlarining bevosita davlat manfaatlari va nazorati sohasidagi obyektlarga nisbatan o‘zaro manfaatli hamkorligi, muhim davlat va jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan loyihalarni samarali amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladigan hamkorlar o‘rtasidagi xavflarni taqsimlashni nazarda tutadi¹⁸.

I.A.Gubanov DXShni keng ma’noda davlat va jamoat huquqi normalari tizimi sifatida belgilaydi, bu davlatning vakolatli organlari va jismoniy shaxslar ijtimoiy

¹⁶ Холодная, Н.Д. Государственно–частное партнерство – новый тип отношений в российской экономике // Вопросы государственного и муниципального управления. – 2009. – № 2. – С. 45–51.

¹⁷ Delmon, J. Private Sector Investment in Infrastructure : Project Finance, ДХШ Projects and Risk / J. Delmon // The World Bank and Kluwer Law International. 2009. – P. 7.

¹⁸ Белицкая, А.В. Правовые формы государственно–частного партнерства в России и зарубежных странах / А.В. Белицкая // Предпринимательское право. – 2009. – N2. – С. 21–27.

muhim va foydali maqsadlarga erishish va davlat funksiyalarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat yuridik shaxslar (shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar) bilan o‘zaro hamkorligi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mustaqil tarmoqlararo institutni tashkil etadi hamda qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi¹⁹.

N.E. Xolodnayaning ta’kidlashicha, eng keng tarqalgan narsa, DXShning mohiyatiga, davlat agenti va xususiy sektor o‘rtasida tuzilgan shartnoma bo‘lib, u davlat mollarini berishda ishtirok etishga imkon beradi. Shunday qilib, DXSh davlat va biznesning davlat tomonidan belgilangan vazifalarga erishish uchun xususiy sektorning texnik, moliyaviy va boshqaruv resurslaridan foydalanishni nazarda tutadigan o‘zaro ta’sirning bir shakli hisoblanadi²⁰.

L.S. Demidovanning so‘zlariga ko‘ra, hamkorlik “muayyan maqsadga erishish uchun yaratilgan va qonunchilik bazasiga yoki hamkorlik yoki qo‘shma faoliyat bo‘yicha norasmiy kelishuvlarga tayanadigan bir qator tuzilmalarning rasmiylashtirilgan hamkorlik tizimidir”²¹.

DXSh ta’rifini talqin qilishdagi farqlarga qaramasdan, belgilangan maqsadlarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy shakllari va usullari ularning faoliyat doirasi, amaliy dasturlar sohasini tanlash bilan cheklanadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar DXSh davlat va biznes uchun o‘zaro manfaatli shartlarda ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal etishga qaratilganligiga ishonishadi. Shu munosabat bilan DXShning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

vaqt chegarasi (loyihalar odatda muayyan obyekt yoki obyektlar majmuasi uchun yaratiladi, u muayyan vaqt ichida bajarilishi kerak);

qamrovi bo‘yicha cheklovlar (loyihalar juda aniq obyektga yoki obyektlar majmuasiga birlashtirilgan – katta uy-joy qurilishi, aeroportlar, dengiz portlari, gidroelektrostansiyalar va boshqalar);

raqobat muhitida amalga oshirish (har bir shartnoma yoki imtiyoz uchun

¹⁹ Губанов, И.А. Государственно–частное партнерство в России : предмет, методы, принципы правового регулирования / И.А. Губанов // Юридическая мысль. – 2009. – № 2. – С. 27–28.

²⁰ Холодная, Н.Д. Государственно–частное партнерство – новый тип отношений в российской экономике / Н.Д. Холодная // Вопросы государственного и муниципального управления. – 2009. – № 2. – С. 45–51.

²¹ Демидова, Л. С. Система партнерских отношений: новые тенденции и эффективность / Л.С. Демидова // Государство и бизнес: институциональные аспекты. – 2006. – С. 40–48.

raqobat bor).

Shunday qilib, DXSh – o‘zaro manfaatli shartlarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat va biznes o‘rtasidagi munosabatlarning qonuniy va tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan tizimi.

Ushbu yangi institutning paydo bo‘lishi bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega sabablarga bog‘liq.

Birinchidan, bu budjet mablag‘larining yetishmasligi, ikkinchidan, aholiga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatining pastligi tufayli iqtisodiyotning ijtimoiy ahamiyatga molik sohalarini to‘liq hajmda rivojlantirish imkoniyatining yo‘qligi bilan bog‘liq.

DXSh doirasida davlat va xususiy sherik birlashganda har bir tomon o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqaradi, o‘z maqsadlariga ega, aniq vazifalarini hal etadi. DXShni amalga oshirishda moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy imtiyozlar mavjud.

Davlat sektori aholiga infratuzilma va ijtimoiy yo‘naltirilgan tarmoq xizmatlari hajmi va sifatini yaxshilashdan manfaatdor. Xususiy sektorning asosiy vazifasi muayyan qo‘shma loyihada ishtirok etishdan maksimal dividendlar olish istagida. Xususiy sektor o‘z ustuvorliklarini nafaqat daromad olish, balki barqaror hamkorlik va istiqbolga ega bo‘lish uchun quradi. Shu bilan birga, har ikki tomon ham loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishdan manfaatdor. Har holda, davlat tartibga solish va nazorat qilishning asosiy dastaklarini o‘zida saqlab qoladi. Tarif siyosati, xavfsizlikni nazorat qilish, ekologik va texnik xavfsizlikni nazorat qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini nazorat qilish – asosiy nazorat dastaklari jumlasidandir. Iqtisodiyotning xususiy sektori tomonidan DXSh ishtirokchilari davlat asoschisi bo‘lmagan tijorat va notijorat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan fuqarolar va yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohasidagi DXShning asosiy shakllariga mutaxassislar davlat shartnomalari, ijara munosabatlari, DXSh korxonalarining mahsulot va xizmatlarni taqsimlash to‘g‘risidagi bitimlari, konsessiya shartnomalari kiradi. DXSh shakllaridan biri davlat xususiy kompaniyalarga taqdim etadigan turli

xil shartnomalardir.

Shartnomalar davlat (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) va xususiy firma o'rtasida muayyan ijtimoiy zarur va foydali faoliyatni amalga oshirish uchun tuzilgan ma'muriy bitimdir. DXSh amaliyotida eng keng tarqalgan ishlarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, boshqarish, davlat ehtiyojlari uchun xizmat ko'rsatish, mahsulot yetkazib berish, texnik yordam ko'rsatish uchun shartnomalar hisoblanadi. Ma'muriy shartnoma munosabatlarida mulkni tasarruf etish huquqi xususiy hamkorga o'tkazilmaydi. Xarajatlar va xatarlar davlat tomonidan to'liq qoplanadi. Xususiy biznesning qiziqishi shundaki, shartnoma bo'yicha u daromad, foyda yoki to'plangan to'lovlardagi kelishilgan ulushga ega bo'lish huquqini oladi. Odatda, davlat yoki kommunal organ bilan tuzilgan shartnomalar xususiy tadbirkor uchun juda jozibali biznesdir, chunki u obro-e'tiborga qo'shimcha ravishda unga barqaror bozor va daromad, shuningdek, mumkin bo'lgan imtiyozlar va afzalliklar kafolatlanadi.

DXSh yana bir davlatning mol-mulki bo'yicha ijara (lizing) munosabatlari hisoblanadi. An'anaviy ijara shartnomasi va lizing shartnomasi davlat yoki kommunal mulkning xususiy sherigiga vaqtinchalik foydalanish va ma'lum bir haq evaziga berish xususiyatiga ega.

Chet elda yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda DXShning eng keng tarqalgan shakli imtiyozlar (konsessiyalar)dir. Imtiyozlar (konsessiyalar) – bir tomondan, davlat (imtiyoz beruvchi) va boshqa tomondan, xususiy yuridik yoki jismoniy shaxs (imtiyoz oluvchi) o'rtasida shartnoma asosida davlat mulkidan foydalanish huquqini imtiyoz oluvchiga to'lov va qaytarish asosida berish bo'yicha davlatning mutlaq monopoliyasini tashkil etadigan faoliyat turlarini amalga oshirish huquqlaridan kelib chiqadigan munosabatlar tizimi.

Konsessiyalar hamkorlikning eng rivojlangan, istiqbolli va murakkab shakli hisoblanadi. Birinchidan, ular shartnoma munosabatlaridan farqli o'laroq, uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, har ikki tomon ham o'z faoliyatini strategik rejalashtirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, imtiyozlarda xususiy sektor ma'muriy-iqtisodiy va boshqaruv

qarorlarini qabul qilishda eng to'liq erkinlikka ega bo'lib, ularni qo'shma korxonalar va ishlarni bajarish uchun shartnomalardan ajratib turadi.

Uchinchidan, davlat konsessiya shartnomasi va Qonunchilik normalari doirasida konsessionerga konsessiya shartlarini buzgan taqdirda, shuningdek, jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish zarur bo'lganda, konsessiyaga ta'sir qilish uchun yetarlicha kuchga ega.

To'rtinchidan, davlat konsessionerga faqat mulk obyektiga egalik qilish, undan foydalanish huquqlarini beradi, biroq uni tasarruf etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Green Paper on Public-Private Partnerships and Community Law on Public Contracts and Concessions. Brussels. 30.04.2004. P.3.
2. http://ec.europa.eu/regional_policy/sources/docgener/guides/en.pdf. Murojaat etilgan sana: 04.04.2019 й.
3. Практическое руководство по вопросам эффективного управления в сфере ГЧП/ Организация Объединенных Наций. - Нью-Йорк и Женева, 2008. ISBN: 978-92-1-4160403.
4. World Bank Institute / PPIAF, Public-Private Partnerships Reference Guide, Washington DC, 2012.
5. Public-Private Partnerships Handbook. Asian Development Bank. 2006.
6. Report to Congress on Public Private Partnerships. U.S. Department of Transportation, Federal Highway Administration, December 2004. p. 10.
7. Guidelines for Financial Support to Public Private Partnerships in Infrastructure, Government of India, 2006.
8. An Introduction to Public Private Partnerships, Partnerships British Columbia, Canada, 2003. [http://www.partnershipsbc.ca /pdf/An%20](http://www.partnershipsbc.ca/pdf/An%20).
9. National Public Private Partnership Guidelines Overview, Australian Government, Dec. 2008. http://infrastructureaustralia.go.au/public_private/files/.
10. Introduction to Public Private Partnerships - Public Private Partnership Guidance Note 1, 14 April 2000, Department of the Environment and Local Government, Ireland
11. Efficiency Unit, An Introductory Guide to Public Private Partnerships (Hong Kong, 2nd edition 2008).
12. Treasury National Infrastructure Unit, Guidance for Public Private Partnerships (ДХШs)

in New Zealand (Wellington, 2009).

13. Norment, R. Fundamentals of Public-Private Partnerships (P3s) / R. Norment // The National Council for Public – Private Partnerships, – 2007.

14. Rosenau, P. Public-Private policy partnerships / P. Rosenau // Cambridge, MA: MIT press, 2000.